



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**“GLOBALLASHUV SHAROITIDA
YOSHLAR MA'NAVIYATI”**

**MAVZUSIDAGI
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY**

KONFERENSIYA

**MATERIALLARI
TO'PLAMI**

TOSHKENT - 2026-YIL

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**“GLOBALLASHUV SHAROITIDA YOSHLAR
MA'NAVIYATI”**

**MAVZUSIDAGI 2026-YIL 22-APREL RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI
materiallar to'plami**

Toshkent shahri-2026

“Globallashuv sharoitida yoshlar ma’naviyati” mavzusidagi 2026-yil 22-aprel respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallar to’plami. Toshkent, “LAVITA PRINT MCHJ nashriyoti, 2026. 355-bet.

Mas’ul muharrir:
Abdurazakova K.Y.
Siyosiy fanlar bo’yicha falsafa doktori (PHD)

To’plab, nashrga tayyorlovchilar:
A. Bo’ronov, N. Nazarov, A. Yarkulov, S. Abdusalomova, B. Xaytboyev.

Annotatsiya

Mazkur respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to’plami "O'zbekiston – 2030" strategiyasi hamda "Yangi O'zbekiston — ma'rifatli jamiyat" konsepsiyasi doirasida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosiga bag'ishlangan. To'plamda globallashuvning yoshlar dunyoqarashiga ta'siri, ijtimoiy-siyosiy va falsafiy talqinlar, shuningdek, mustaqillik yillarida O'zbekistonning iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti masalalari chuqur tahlil etilgan. Alohida e'tibor yoshlarning axloqiy va valeologik strategiyalarini shakllantirish hamda ularda mafkuraviy immunitetni mustahkamlashga qaratilgan. To'plam tarkibidan soha mutaxassislari bilan bir qatorda, "Kelajak vorislari" sho'basi doirasida iqtidorli magistr va talabalarning ham ilmiy izlanishlari o'rin olgan.

Аннотация

Данный сборник материалов республиканской научно-практической конференции посвящен реализации задач, определенных в рамках стратегии «Узбекистан – 2030» и концепции «Новый Узбекистан — просвещенное общество». В сборнике глубоко анализируются вопросы влияния глобализации на мировоззрение молодежи, социально-политические и философские интерпретации, а также экономическое и культурное развитие Узбекистана в годы независимости. Особое внимание уделено формированию нравственных и валеологических стратегий молодежи, а также укреплению их идеологического иммунитета. Наряду со статьями ведущих специалистов, в сборник вошли научные изыскания одаренных магистров и студентов в рамках секции «Наследники будущего» (Kelajak vorislari).

Annotation

This collection of republican scientific-practical conference materials is dedicated to the implementation of tasks defined within the framework of the "Uzbekistan – 2030" strategy and the "New Uzbekistan — Enlightened Society" concept. The collection provides a profound analysis of globalization's impact on the youth's worldview, socio-political and philosophical interpretations, as well as the economic and cultural development of Uzbekistan during the years of independence. Special focus is placed on forming the moral and valeological strategies of young people and strengthening their ideological immunity. Along with the works of established experts, the collection features scientific research by talented graduate and undergraduate students within the "Successors of the Future" (Kelajak vorislari) section.

5. “Ta’lim-tarbiya infratuzilmasi” ni tamomlab, oliy ma’lumotga va muayyan mutaxassislikka ega bo’lgan yoshlar dunyoqarashini va mamlakat iqtisodiyotini rivojlanishiga muhim turtki bo’ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “2019-2021 yillarda O’zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to’g’risida” gi Farmonii. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 22.09.2018 y., 06/18/5544/1951-son.
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 noyabrdagi "O’zbekiston”, Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to’g’risida"gi PF-5264-son Farmoni. Qonun hujjatlari to’plami.
3. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi o’zbek xalqiga murojaatnomasi. 2025 yil 26 dekabr. “Xalq so’zi” gazetasi. 2025 yil 27 dekabar soni.
5. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi farmoni. <https://uza.uz/oz/documents/zbekiston-respublikasi-oliy-talim-tizimini-2030-yilgacha-riv-09-10-2019>.
6. Abrorov I. Oliy ta’lim tizimi zamonaviy yondashuvlar asosida rivojlanadi. Xalq so’zi, 26 aprel 2017 yil.

QISQA FORMATLI MEDIKONTENT VA YOSHLAR DUNYOQARASHINING SHAKLLANISHI

Kushayev Umidjon Raximovich

Falsafa fanlaridoktori (DSc), professor v.b.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o’zbek tili va adabiyoti universiteti,

E-mail: umidlidunyo@mail.ru

Doi: 10.52773/tsuull.conf.2026.22.04/FJCP1301

Annotatsiya: Maqolada zamonaviy raqamli media muhitida qisqa formatli mediakontentning keng tarqalishi va uning yoshlar dunyoqarashi hamda tafakkur tarziga ko’rsatayotgan ta’siri tahlil qilinadi. Tadqiqotda raqamli kommunikatsiya sharoitida axborotni qabul qilish usullarining o’zgarishi, klipli fikrlash fenomeni hamda tafakkurning tiktoklashuvi jarayonining ijtimoiy-falsafiy jihatlari yoritiladi. Shuningdek, O’zbekistonda internet va raqamli platformalardan foydalanish darajasi misolida yoshlarning raqamli mediamadaniyatga jalb etilganlik holati ko’rib chiqiladi. Maqolada qisqa formatli mediakontentning yoshlar ijtimoiy faolligi, axborot iste’moli va bilim olish

jarayonlariga ta'siri tahlil qilinib, raqamli muhit sharoitida media savodxonlik va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning ahamiyati asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: *Yoshlar dunyoqarashi, raqamli mediamadaniyat, qisqa formatli mediakontent, tafakkurning tiktoklashuvi, klipli fikrlash, sun'iy intellekt, raqamli kommunikatsiya*

Abstract: The article analyzes the widespread use of short-form media content in the modern digital media environment and its impact on the worldview and thinking of young people. The study highlights the socio-philosophical aspects of the change in the methods of receiving information in digital communication, the phenomenon of clipped thinking, and the process of ticking of thinking. It also examines the state of youth involvement in digital media culture using the example of the level of use of the Internet and digital platforms in Uzbekistan. The article analyzes the impact of short-form media content on the social activity of young people, information consumption, and knowledge acquisition processes, and justifies the importance of developing media literacy and critical thinking skills in the digital environment.

Keywords: *Youth worldview, digital media culture, short-form media content, ticking of thinking, clipped thinking, artificial intelligence, digital communication*

XXI asrda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida insonning axborotni qabul qilish, qayta ishlash va tarqatish usullari sezilarli darajada o'zgarmoqda. Internet va ijtimoiy tarmoqlar zamonaviy jamiyatda kommunikatsiyaning asosiy maydoniga aylanib, ayniqsa yoshlar dunyoqarashining shakllanishida muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Raqamli muhitda keng tarqalayotgan qisqa formatli mediakontent - qisqa videolar, tezkor vizual materiallar va dinamik axborot shakllari - zamonaviy yosh avlodning tafakkur tarziga yangi xususiyatlar olib kirmoqda.

Shuning bilan birga, qisqa formatli mediakontentning keng tarqalishi yoshlar tafakkuriga qanday ta'sir ko'rsatayotgani, ayniqsa raqamli muhit sharoitida axborotni qabul qilish usullarida yuz berayotgan o'zgarishlarning ijtimoiy va falsafiy oqibatlari hali yetarli darajada tadqiq etilmagan masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Zamonaviy raqamli muhitning yoshlar dunyoqarashiga ta'sirini tushunish uchun internet foydalanuvchilarining umumiy dinamikasiga nazar tashlash muhim. So'nggi yillarda O'zbekistonda raqamli kommunikatsiya vositalaridan foydalanish darajasi keskin oshdi. Ochiq statistik ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatda internet

foydalanuvchilari soni 2024-2025 yillarga kelib 35 million nafarga yaqinlashdi [DataReportal. Digital 2024, 2024], [AKTdan foydalanish ko'rsatkichlari, 2024]. Bu esa aholining katta qismi raqamli axborot muhitiga jalb etilganini ko'rsatadi.

Yoshlar esa mazkur jarayonning eng faol ishtirokchilari hisoblanadi. Turli tadqiqotlarga ko'ra, 18-30 yosh toifasidagi foydalanuvchilar ijtimoiy tarmoq auditoriyasining eng katta qismini tashkil etadi. Ayniqsa qisqa videolar tarqaladigan platformalar yoshlar orasida keng ommalashgan [AKTdan foydalanish ko'rsatkichlari, 2024]. Bu holat raqamli mediamadaniyatning yoshlar dunyoqarashiga ta'siri ortib borayotganini ko'rsatadi.

Ma'lumki, an'anaviy axborot makonida bilim asosan kitob, ilmiy adabiyot va uzoq matnlar orqali o'zlashtirilgan. Bunday format insondan diqqatni uzoq vaqt davomida muayyan ob'yektga qaratishni, chuqur tahlil qilishni va mulohaza yuritishni talab qilgan. Raqamli media muhitida esa axborotni qabul qilish shakli sezilarli darajada o'zgarmoqda. Qisqa formatli videolar va vizual kontent inson diqqatini tez jalb qiladigan hamda bir necha soniya ichida ma'lumot yetkazishga mo'ljallangan kommunikatsiya shakli hisoblanadi.

So'nggi yillarda qisqa formatli videolar global internet makonida eng tez rivojlanayotgan mediakontent turlaridan biriga aylandi. Xalqaro tahlillarga ko'ra, qisqa videolar tarqaladigan platformalarda foydalanuvchilar kuniga o'rtacha 60-90 daqiqagacha vaqt sarflaydi [Kaye D. B., Chen X., Zeng J.,2021].

Ayrim platformalar auditoriyasi esa milliardlab foydalanuvchilarni qamrab olgan. Masalan, qisqa videolar formatini ommalashtirgan ijtimoiy tarmoqlar auditoriyasi bir necha milliard foydalanuvchiga yetib, ularning katta qismi yoshlardan iborat. Bu holat mazkur mediashaklning global axborot madaniyatidagi o'rnini tobora mustahkamlanib borayotganini ko'rsatadi.

Nazariy jihat - "diqqat iqtisodiyoti".

So'nggi yillarda qisqa formatli mediakontent global axborot makonida keng tarqalgan madaniy fenomenga aylandi. Bunday kontentning asosiy xususiyati axborotni juda qisqa vaqt ichida yetkazish va tomoshabin diqqatini tez jalb qilishdan iborat. Bu holat inson psixologiyasida "diqqat iqtisodiyoti" deb ataladigan jarayon bilan ham

bog'liq [Castells, 2010]. Axborot hajmi keskin oshgan sharoitda inson e'tibori eng qimmat resurslardan biriga aylanmoqda.

Zamonaviy mediamadaniyatni tushunishda “diqqat iqtisodiyoti” tushunchasi muhim ahamiyatga ega. Ushbu konsepsiyaga ko'ra, axborot hajmi ortib borgan sari inson e'tibori eng cheklangan resursga aylanadi. Shu sababli raqamli platformalar foydalanuvchi diqqatini maksimal darajada jalb qilishga qaratilgan formatlarni ishlab chiqadi.

Qisqa formatli videolar ana shu iqtisodiy va kommunikativ mexanizmning mahsuloti hisoblanadi. Ularning asosiy maqsadi - foydalanuvchining diqqatini qisqa vaqt ichida jalb qilish va uni platformadan uzoqlashtirmaslikdir. Bu jarayon esa axborotni qabul qilish madaniyatiga ham ta'sir ko'rsatadi.

Qisqa mediakontentning ommalashuvi yoshlar axborotni qabul qilish uslubiga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Ayrim tadqiqotchilar bu jarayonni “klipli fikrlash” fenomeni bilan izohlaydilar [Kaye D. B., Chen X., Zeng J, 2021]. Unga ko'ra, inson uzoq va murakkab matnlarni tahlil qilishdan ko'ra, qisqa va vizual axborot bo'laklarini tez qabul qilishga moslashadi. Bunday fikrlash usuli axborotni tez o'zlashtirish imkoniyatini yaratsa-da, ayrim hollarda chuqur tahlil va sistemali fikrlash ko'nikmalarining susayishiga olib kelishi mumkin.

Shu bilan birga qisqa formatli mediakontentni faqat salbiy omil sifatida baholash ham to'g'ri emas. Uning ijobiy imkoniyatlari ham mavjud. Birinchidan, bunday kontent axborotni keng auditoriyaga tez va samarali tarzda yetkazish imkonini beradi. Ikkinchidan, vizual va dinamik format yoshlarning e'tiborini jalb qilishda juda samarali vosita hisoblanadi. Shu sababli ta'lim, ma'rifat va ijtimoiy kommunikatsiya sohalarida ham qisqa mediakontentdan foydalanish tendensiyasi tobora kuchayib bormoqda.

Zamonaviy raqamli media muhitida axborotni qabul qilish usullarida yuz berayotgan o'zgarishlarni shartli ravishda “tafakkurning tiktoklashuvi” deb atash mumkin.

Tafakkurning tiktoklashuvi– bu raqamli mediamadaniyat ta'sirida inson tafakkurining axborotni qisqa, tezkor va vizual formatlarda qabul qilishga moslashib borishi bilan xarakterlanadigan kognitiv jarayonni ifodalovchi tushunchadir.

Mazkur tushuncha inson tafakkurining axborotni qisqa, tezkor va vizual formatlarda qabul qilishga moslashib borayotgan yangi xususiyatini ifodalaydi. Raqamli platformalarda keng tarqalayotgan qisqa videolar va dinamik mediakontent inson diqqatini uzoq muddat bir ob'yektga jamlashdan ko'ra, qisqa vaqt ichida tez almashib turuvchi axborot fragmentlarini qabul qilishga yo'naltirmoqda. Natijada tafakkur jarayonida axborotni qisqa signallar, vizual obrazlar va tezkor emotsional ta'sirlar orqali qabul qilish tendensiyasi kuchaymoqda. Bunday holat bir tomondan axborotni tez o'zlashtirish imkoniyatini yaratsa, ikkinchi tomondan murakkab masalalarni chuqur tahlil qilish va uzoq muddatli intellektual konsentratsiyani talab qiladigan faoliyat shakllariga muayyan ta'sir ko'rsatishi mumkin [Carr, 2011].

Zamonaviy raqamli muhitda yoshlar nafaqat axborot iste'molchilari, balki uning faol yaratuvchilariga ham aylanmoqda. Turli mediaplatformalarda yaratilayotgan videokontent, bloglar va ijtimoiy media loyihalari orqali yoshlar jamoatchilik fikriga ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lmoqda [Kaye D. B., Chen X., Zeng J, 2021]. Bu holat yoshlarning ijtimoiy faolligi va kommunikatsiya madaniyatining yangi shakllarini yuzaga keltirmoqda.

Yoshlar va sun'iy intellekt texnologiyalari.

So'nggi yillarda sun'iy intellekt texnologiyalarining ommalashuvi ham yoshlar faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Turli intellektual dasturlar, generativ algoritmlar va raqamli xizmatlar axborot izlash, ma'lumotlarni tahlil qilish va ta'lim jarayonida faol qo'llanilmoqda. Ayniqsa talabalar va yosh mutaxassislar orasida sun'iy intellekt asosida ishlovchi raqamli vositalardan foydalanish tendensiyasi tobora kuchaymoqda [Kaye D. B., Chen X., Zeng J, 2021]. Bu holat bir tomondan bilim olish jarayonini tezlashtirsa, ikkinchi tomondan yoshlar tafakkurida axborotni algoritmik tarzda qayta ishlashga moslashgan yangi intellektual muhitni shakllantirmoqda. Shu sababli zamonaviy ta'lim tizimida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish madaniyatini shakllantirish, ularning imkoniyatlari va cheklovlarini tushuntirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy raqamli muhitda yoshlar tafakkurida kuzatilayotgan o'zgarishlarni ayrim tadqiqotchilar "ongning algoritmlashuvi" jarayoni bilan ham izohlaydilar

[Castells, 2010]. Bu tushuncha inson fikrlash jarayonining raqamli texnologiyalar va algoritmlar ta'sirida muayyan darajada qayta shakllanib borayotganini anglatadi. Raqamli platformalar, sun'iy intellekt tizimlari va avtomatlashtirilgan axborot xizmatlari insonning qaror qabul qilish jarayoniga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Natijada axborotni tanlash, tahlil qilish va baholash kabi kognitiv jarayonlar ko'p hollarda algoritmik tavsiyalar va raqamli interfeyslar orqali yo'naltirila boshlaydi. Bu holat bir tomondan axborot bilan ishlashni osonlashtirsa, ikkinchi tomondan insonning mustaqil tanlov va tanqidiy tahlil qobiliyatlarini saqlab qolish masalasini dolzarb qilib qo'yadi. Shu sababli raqamli sivilizatsiya sharoitida yoshlar ongining algoritmlashuvi jarayonini chuqur ilmiy tahlil qilish zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Ta'lim va media savodxonlik masalasi.

Qisqa mediakontentning keng tarqalishi ta'lim tizimi oldiga ham yangi vazifalarni qo'ymoqda. Zamonaviy yoshlar axborotni asosan raqamli muhit orqali qabul qilayotgani sababli ta'lim jarayonida media savodxonlik va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa axborot manbalarini tahlil qilish, feyk ma'lumotlarni ajrata bilish va raqamli muhitda mas'uliyatli axborot iste'molini shakllantirish zamonaviy ta'limning muhim vazifalaridan biriga aylanmoqda.

Shu bilan birga raqamli axborot makonida tanqidiy fikrlash ko'nikmalari alohida ahamiyat kasb etmoqda. Internetda tarqalayotgan axborotlarning barchasi ham ishonchli va ilmiy asoslangan emas. Shu sababli yoshlar axborotni tahlil qilish, uning manbasini tekshirish va turli nuqtai nazarlarni qiyosiy baholash ko'nikmalariga ega bo'lishi zarur. Ta'lim tizimida media savodxonlikni rivojlantirish ana shu vazifani amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy raqamli sivilizatsiya sharoitida yoshlar dunyoqarashining shakllanishi axborotning mazmunidan ko'ra uning formati va tarqalish tezligi bilan ko'proq belgilanmoqda; shu ma'noda qisqa formatli mediakontent yoshlar tafakkurida axborotni qabul qilishning yangi kognitiv modellarini shakllantiruvchi muhim omilga aylanmoqda.

Xulosa qilib aytganda, qisqa formatli mediakontent zamonaviy raqamli madaniyatning muhim elementlaridan biriga aylanmoqda. U yoshlar axborotni qabul qilish usullari, kommunikatsiya madaniyati va dunyoqarashining shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli mazkur fenomenni ilmiy jihatdan tahlil qilish hamda uning ijobiy imkoniyatlaridan samarali foydalanish zamonaviy ta'lim tizimi va jamiyat rivoji uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. DataReportal. Digital 2024: Uzbekistan. - URL: <<https://datareportal.com>> (murojaat qilingan sana: 2025).
2. Carr N. The Shallows: What the Internet Is Doing to Our Brains. - New York: W. W. Norton & Company, 2011.
3. Castells M. The Rise of the Network Society. - Oxford: Blackwell Publishers, 2010.
4. Kaye D. B., Chen X., Zeng J. The Co-evolution of Two Chinese Mobile Short Video Apps: Parallel Platformization of Douyin and TikTok // Mobile Media & Communication. - 2021.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ko'rsatkichlari. - Toshkent, 2024.

SHARQ OILALARIDA MEHR VA MUHABBAT KO'RINISHLARI.

Sultonova Nodira Ergashovna

Toshkent amaliy fanlar universiteti

“Tarix va ijtimoiy fanlar” kafedrası professor v.b.f.f.d.(DSc)

Tel. +998-90-905-15-83

Doi: 10.52773/tsuull.conf.2026.22.04/PGYQ2939

Annotatsiya: Maqolada mehr va muhabbatni olimlar talqini. Milliy-ma'naviy tarbiya: mohiyati va tamoyillari. Mexribon farzandlarni tarbiyalashning milliy va ma'naviy omillari. Millat urf-odatlarini mehr va muxabbatning o'rni va ahamiyati. Xalq hayotida mavjud bo'lgan tartib va qoidalarining oilada barkamol avlod tarbiyasiga ta'siri.

Kalit so'zlar: *Oila, nikoh, mehr, muhabbat, axloq, kitob, inson, insonparvarlik, vatanparvarlik, ta'lim tizimi, odob-axloq, milliy qadriyatlar.*

Abstract: The article presents the interpretation of love and affection by scientists. National-spiritual education: its essence and principles. National and spiritual factors in raising loving children.

MUNDARIJA.

T\ r	Mavzusi	beti
I. GLOBALLASHUV VA YOSHLAR FALSAFIY TALQIN		
1.	Sirojiddinov Sh.S. KIRISH SO'ZI.	4
2.	Jamolidinova O.R. TABRIK SO'ZI.	6
3.	Yunusov K.A. GLOBALLASHUV VA O'ZBEKISTONDA, YOSHLAR DUNYOQARASHINI YUKSALTIRISHGA INNOVATSION YONDASHUV	8
4.	Kushayev U.R. QISQA FORMATLI MEDIKONTENT VA YOSHLAR DUNYOQARASHINING SHAKLLANISHI	13
5.	Sultonova N.E. SHARQ OILALARIDA MEHR VA MUHABBAT KO'RINISHLARI.	19
6.	Mamatqobilov T., Ergasheva R., Saydirasulova D. FAVQULODDAGI HOLATDA AHOLI BILAN PSIXOLOGIK ISHLASH VA KOMMUNIKATIV KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH USULLARI	23
7.	Islamova D.X., Abdusattorov A.B. YOSHLARDA TINCHLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING FALSAFIY MAZMUN-MOHİYATI	28
8.	Islamova D.X. YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA YOSHLARDA MA'NAVIY MADANIYATINI YUKSALTIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI VA ULARNING YECHIMI	32
9.	G'ulamov O.G'. YOSHLAR MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISHDA IJTIMOİY OMILLARNING AHAMIYATI	37
10.	Ibrogimova G. MA'NAVIY TANLOVNING IJTIMOİY MOHIYATI VA UNING QADRIYATLAR TIZIMIDAGI O'RNI.	42
11.	Ahadov SH. CHINA AND BELT AND ROAD INITIATIVE IN	47

	CENTRAL ASIA.	
12.	Jumaqulova N., Arolova Z. GLOBALLASHUV SHAROITIDA YOSHLAR MA'NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHDA BADIY ADABIYOTNING O'RNI	56
13.	Mirsoliyeva N. GLOBALLASHUV VA YOSHLAR MASALASINING FALSAFIY TALQINI	61
14.	Ibragimov B.I. TALABALARNING DAVLAT VA JAMIYAT OLDIDAGI IJTIMOY MAS'ULIYATINI RIVOJLANTIRISHDA ANTROPOSENTRIK YONDASHUVLAR MAZMUN MOHIYATI	65
15.	Shirnova Y.T., Isakulova S.E. GLOBALLASHUV SHAROITIDA O'ZBEK TILINING LINGVOMADANIY TRANSFORMATSIYASI: YOSHLAR NUTQI MISOLIDA	71
16.	Mirsoliyeva N. YOSHLAR MASALASI VA ULARNING DUNYOQARASHINI KENGAYTIRISHNING FALSAFIY IJTIMOY OMILLARI	75
17.	Karimov F. O'ZBEKISTONDA OILAVIY AJRIMLARNING SABABLARI VA ULARNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK OQIBATLARI	79
II. YOSHLAR DUNYOQARASHINI YUKSALTIRISHNING IJTIMOY-SIYOSIY OMILLARI		
18.	Omonov B. YOSHLAR SIYOSIY MADANIYATI VA MILLIY O'ZLIK MASALASIGA DOIR	85
19.	Kuchkarov V. PRAGMATIC ASPECTS OF NATIONAL SELF-CONSCIOUSNESS IN INCREASING YOUTH SOCIAL ACTIVITY	93
20.	Nazarov N. YOSHLARDA O'ZLIKNI ANGLASHNI YUKSALTIRISHDA TARIXIY QADRIYATLARNING O'RNI	101
21.	Abdurazakova K. IJTIMOY SIYOSAT: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.	107
22.	Nazarova D., Boymirzayev O.O. YANGI O'ZBEKISTONDA BOLALARNI ZO'RAVONLIKNING BARCHA SHAKLLARIDAN	113

	HIMOYA QILISH MEXANIZMLARI	
23.	Kudratova U. TALABALAR AKADEMIK ERKINLIGI MEZONLARI	119
24.	Jiyanmuratova G. YOSHLAR ELEKTORAL FAOLLIGIGA TA'SIR KO'RSATUVCHI SOTSIOMADANIY OMILLAR	123
25.	Ma'mirova O. DAVLAT VA MAHALLIY HOKIMIYAT BOSHQARUV ORGANLARI TIZIMINI NOMARKAZLASHTIRISHNING O'ZBEKISTON TAJRIBASI	128
26.	Salayev F. MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONNING IJTIMOY-SIYOSIY RIVOJLANISHIDA MILLATLARARO MUNOSABATLARNING TA'SIRI	135
27.	Ibragmov J. MEHNAT NIZOLARI VA ISH TASHLASHLAR	138
28.	Ergashev K., Shaymardonova G. KORRUPSIYA JAMIYATDAGI IJTIMOY ILLAT	145
29.	Бозаров А. НЕОГРАМШИАНСКАЯ КОНЦЕПЦИЯ ГЕГЕМОНИИ В МЕЖДУНАРОДНЫХ ОТНОШЕНИЯХ.	151
30.	Qarshiboyeva M., Mirsoliyeva N. GLOBALLASHUV DAVRIDA YOSHLAR MA'NAVIYATI	159
31.	Mirraximov B. YOSHLAR SIYOSIY ONGI SHAKLLANISHIDA IJTIMOY TARMOQLARNING TA'SIRI	163
32.	Ergashev K.E. O'ZBEKISTON VA QOZOG'ISTONDA DIN ERKINLIGI VA DINIY MUNOSABAT	168
33.	Shirzad R. YOSHLAR HAYOTI MUAMMOLARI: GLOBAL TENDENSIYALAR VA QIYOSIY TAHLIL (O'ZBEKISTON VA AFG'ONISTON MISOLIDA).	176
34.	Gong Yi Feng. THE REVIVAL OF THE SILK ROAD: FROM HISTORICAL DEPTH TO 2025 — A STUDY OF CHINA-UZBEKISTAN RELATIONS	189
35.	SHI FENGKAI. CHINA'S ECONOMIC MIRACLE AND THE SILK ROAD REVIVAL: A STUDY OF CHINA-UZBEKISTAN	197

	COOPERATION.	
36.	Rakhimov M. YOUTH SPIRITUAL DEVELOPMENT THROUGH COOPERATION WITH INTERNATIONAL ORGANIZATIONS IN THE FOREIGN POLICY OF NEW UZBEKISTAN	201
III. MUSTAQILLIK DAVRIDA O'ZBEKISTONNING IJTIMOIIY-SIYOSIY, IQTISODIY, MADANIY RIVOJLANISHI		
37.	Qahramon R. YANGI O'ZBEKISTONDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN TUB ISLOHOTLARNING AHAMIYATI	207
38.	Isakov B.N. GLOBALLASHUV SHAROITIDA O'ZBEKISTON YOSHLARIDA MILLIY O'ZLIKNI ANGLASH VA MA'NAVIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI.	220
39.	Jurakulov J. YOSHLAR O'RTASIDA FANLARARO HAMKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA AXBOROT MADANIYATINING O'RNI.	224
40.	Yarkulov A. YEVROPADA URUSH PAYTIDA VAYRON QILINGAN YODGORLIKLARNI QAYTA TIKLANISHI.	232
41.	Abdusalomova S. MARKAZIY OSIYODA TRANSPORT INTEGRATSIYASI: GLOBALLASHUV TENDENSIYALARI VA YOSH AVLODNING MADANIY TRANSFORMATSIYASI.	241
42.	Abdusalomova S. GLOBALLASHUV JARAYONIDA O'ZBEKISTONDA FUQARO AVIATSIYASI TARIXI VA YOSHLAR MADANIYATIGA TA'SIRI.	248
43.	Mirzoyeva F., Boboxonov Sh. O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI QO'LLAB-QUVVATLASH MUAMMOLAR VA IMKONIYATLAR.	252
44.	Muminov B. MAMLUKATIMIZDA MODDIY MADANIY MEROSNI TARG'IB QILISHNING AHAMIYATI.	259
45.	Mirzoyeva F. O'ZBEKISTON HUDUDLARI UCHUN IQTISODIY XAVFSIZLIK MODEL.	268
46.	Qurbonova M. MILLIY MADANIYAT VA GLOBALLASHUV:	273

	MUVOZANAT MASALASI.	
47.	Mirzoyeva F., Rashidi O. BIZNESNI RIVOJLANTIRISH TUSHUNCHASI VA ELEKTRON TIJORATNING UNDA TUTGAN O'RNI (AFG'ONISTON MISOLIDA).	278
48.	Abdurazakova K., Rustamova A. RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING JAMIYATDA BOLALAR RIVOJIGA TA'SIRI.	282
49.	Jo'raqulov J. SHAYBONIYLAR DAVLATIDA ILMIY VA MADANIY HAYOT.	291
50.	Xurromova S. IMOM AL-BUXORIY MAJMUASI – ISLOM SIVILIZATSIYASINING NODIR MEROSI.	300
51.	Razzakova N., Axunova D. IJTIMOIY ISH TA'LIM INNOVATSION USULLAR: TALABANING KASBIY RIVOJLANISHI VA KELAJAKDAGI MUVAFFAQIYATLARI.	304
IV. GLOBALLASHUV DAVRIDA YOSHLARNING AXLOQIY VA VALEOLOGIK STRATEGIYALARI		
52.	Alimboyeva R. YOSHLAR SOG'LIGINI MUSTAXKAMLASHDA JISMONIY MASHQLARNI ORGANIZMGA TA'SIRINING HUSUSIYATLARI.	314
53.	Alimboyeva R. BASKETBOLCHILARNING XUJUM VA HIMOYA TEXNIKASINI MUSTAXKAMLASH METODIKASI.	319
54.	Alimboyeva R., Xolbekova Sh. YOSHLAR HAYOTIDA KURASHNING TARBIYAVIY AHAMIYATI.	324
55.	Xaitmetov F., Nuzilloeva G. MAKTABDA JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA O'QUVCHILAR FAOLIYATINI TASHKILLASHTIRISH USULIYATI.	330
56.	Alimboyeva R., Majidova O. ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING "BOBURNOMA" ASARIDA SPORT MUSOBAQALARINI TASVIRLANISHINING AHAMIYATI.	336

57.	Alimboyeva R., Norkobilova SH. JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA SOG'LOMLASHTIRUVCHI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH METODIKASI.	342
58.	Sobirova D. ZAMONAVIY GLOBALLASHUV SHAROITIDA INSON QADRI	349

To'plam materiallari mualliflarning tahriri holatida chop etildi.

Bosmaxonaga berildi

20.04.2026. bosishga ruxsat etildi 21.04.2026

Bichimi 60x84/16 Ofset qag'ozi. Timer New Roman garnituras

Nashr bosma tabog'i 3,8

Adadi 50 nusxada. Buyurtma № 02-19

“LAVITA PRINT MCHJ nashriyoti

Toshkent shahar, Bunyodkor shoh ko'chasi 27 A-uy

